



MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK TARBIYASI: YOSH AVLOD UCHUN KONSEPTUAL YONDASHUV

Alisherov Javoxir Baxodir o'g'li
Qurolli kuchlar harbiy xizmatchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, nazariy-metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari yoritilgan. Ta'lim muassasalari, oila, mahalla hamda OAV orqali yoshlar ongida milliy g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, milliy g'urur, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В статье раскрываются актуальность, теоретико-методологические основы и практические направления воспитания молодежи в духе идейно-патриотических ценностей. Анализируется опыт формирования национальной гордости и преданности Родине через образовательные учреждения, семью, махаллю и средства массовой информации. Также даны рекомендации по совершенствованию патриотического воспитания.

Ключевые слова: патриотизм, национальная гордость, воспитание молодежи, национальные ценности, педагогический подход.

Annotation. The article highlights the relevance, theoretical-methodological foundations, and practical directions of educating young people in an ideological and patriotic spirit. It analyzes the experience of fostering national pride and devotion to the Motherland through educational institutions, the family, community initiatives, and mass media. Recommendations for improving patriotic education are also provided.

Key words: patriotism, national pride, youth upbringing, national values, pedagogical approach.

KIRISH

Vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usi inson qalbida bolalikdan boshlab shakllanadi. Bu fazilatlar shaxsni ezgu maqsadlar sari yo'naltiradi, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi va uning ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatishga undaydi. Yoshlarni ana shunday oliyjanob qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning qalbida ona yurtga muhabbat va mustaqillik g'oyalariga sadoqatni kamol toptirish bugungi davrning dolzarb talabi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda ularning bilim va salohiyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini yanada yuksaltirishga ehtiyoj katta [1]. Negaki, globallashtirish sharoitida yoshlar ongiga yot g'oyalar kirib



kelish xavfi ortib bormoqda. Shu bois, yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarur [2].

Respublikamizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga "Vatanparvarlik tarbiyasi" fanining joriy etilishi, oliy ta'lim muassasalarida "Milliy g'oya" kursining o'qitilishi ushbu boradagi muhim qadamlar sifatida e'tirof etiladi. Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda vatanparvarlik tushunchasi biryozlama va tor doirada talqin qilinmoqda.

Tadqiqot jarayonida vatanparvarlik va milliy g'ururni yuksaltirishga doir ko'plab adabiyotlar o'rganildi. Jumladan, A. Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi adiblarning asarlarida ushbu mavzu chuqur yoritilgan. Shuningdek, Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" hamda Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarish" kabi asarlarida ham vatanparvarlik va milliy g'urur masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish samarali tashkil etilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishga, ularning qalbida milliy g'urur tuyg'usini kamol toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [3]. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham bu mavzuga keng o'rin berilgan. Masalan, "Vatan - muqaddas, uni himoya qilish sharaflidir" shiori ostida o'tkazilgan tadbirlar bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda [4]. Oilada ham bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor kuchaytirildi. Ota-onalar farzandlariga milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi haqida ko'proq ma'lumot berishga harakat qilmoqdalar [5]. Bu esa o'z navbatida yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahallalarda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha turli tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, "Mahallada – ma'naviyat" shiori ostida tashkil etilayotgan uchrashuv va tadbirlarda milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz hamda buyuk siymolarimizning hayoti va ijodi yosh avlodga ibrat sifatida targ'ib etilmoqda. Bu esa yoshlarning Vatanga bo'lgan sadoqati va vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari ham ushbu mavzuni yoritishda faol ishtirok etmoqda. Televideniye va radio orqali vatanparvarlik ruhidagi ko'rsatuvlar,



eshittirishlar va intervyular muntazam efigra uzatilmogda. Gazeta va jurnallarda chop etilayotgan maqolalar va lavhalar ham bu boradagi sa'y-harakatlarni yanada jonlantirish hamda keng ommaga yetkazishda muhim rol o'ynamoqda.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Albatta, vatanparvarlik va milliy g'ururni yuksaltirish borasida amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholash mumkin. Ayni paytda bu jarayonda ayrim kamchilik va muammolar ham mavjud. Avvalo, yoshlar orasida milliy qadriyatlardan uzoqlashish, g'arb madaniyatiga intilish kabi salbiy holatlarga barham berish lozim [6]. Aks holda bu dunyoqarash yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy g'ururni so'ndirib qo'yishi mumkin.

Shuningdek, yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish jarayonida andozalarga berilmaslik, mavzuning mazmun-mohiyatini chuqur yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina bu tuyg'u chin ma'noda yosh avlod qalbidan mustahkam joy oladi.

Yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Vatanparvarlik tarbiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida konseptual yondashuvni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarur. Ushbu konsepsiyada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari, tamoyillari va mexanizmlarini belgilab berish, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

2. Oilada ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish;

Negaki, bola shaxsining shakllanishi, uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi, eng avvalo, oilada vujudga keladi. Shu sababli ota-onalar bolaga yoshligidan milliy qadriyatlarni singdirishi, unda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishi zarur. Bu borada ota-onalar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish, risola va qo'llanmalarni nashr etish maqsadga muvofiqdir.

3. Ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini zamon talablari asosida takomillashtirish;

Bugungi globallashtirish sharoitida ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini zamon talablari asosida takomillashtirish zarur. Bu borada darslik va o'quv qo'llanmalari mazmunini qayta ko'rib chiqib, ularga vatanparvarlik g'oyalarni chuqur singdirish lozim. Shuningdek, dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan



hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning mavzuni yanada puxta o'zlashtirishiga yordam beradi.

4. Mahallalarda yoshlar bilan ishlashga e'tiborni kuchaytirish;

Har bir mahallada yoshlar yetakchilarining faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish muhim ahamiyatga ega. Mahallalardagi "Yoshlar maydonchalari" hamda sport inshootlaridan to'laqonli foydalanish esa yoshlar ongida vatanparvarlik ruhini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

5. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik mavzusini kengaytirish;

Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik mavzusidagi ko'rsatuvlar, eshittirishlar va maqolalar sonini ko'paytirish, ularning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Ayniqsa, yoshlar keng foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan samarali foydalanish bu boradagi sa'y-harakatlarni kuchaytiradi.

6. Yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

Bundan tashqari, yosh avlodning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iste'dodini namoyon qilish va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham g'oyat muhimdir. Zero, Vatanga muhabbat va milliy g'ururni yuksaltirish uchun har tomonlama yetuk, ma'nan boy hamda jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Vatanparvarlik va milliy g'urur yosh shaxs ma'naviyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida jamiyat barqarorligi, davlat qurilishi va milliy taraqqiyotning strategik drayveri ekanini ushbu maqoladagi tahlillar tasdiqlaydi. Yoshlar ongiga ushbu qadriyatlarni izchil singdirish faqat targ'ibot bilan emas, balki nazariy-metodologik poydevorga tayanadigan, institutsional hamkorlikka suyanuvchi va natijaga yo'naltirilgan tarbiya tizimi orqali amalga oshadi.

Birinchi navbatda, maqolada bayon etilgan tarixiy, g'oyaviy, psixologo-pedagogik, madaniy-falsafiy, huquqiy va ijtimoiy - iqtisodiy asoslar o'zaro bog'liq yaxlit majmua sifatida qaralishi lozim. Tarix - ilhom manbai, g'oya - yo'lchi yorug'lik, psixologiya-pedagogika - usul va vositalar majmuasi, madaniyat va falsafa -mazmun va ma'no manbai, huquq - me'yoriy kafolat, ijtimoiy-iqtisodiy asos esa amaliy maydon va rag'bat tizimini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, maqolada taklif etilgan "ko'p darajali ekotizim" modeli (oila - maktab - mahalla - OAV - davlat va jamoat tuzilmalari) vatanparvarlik tarbiyasini uzluksiz zanjirga aylantiradi. Oilada shakllangan his-tuyg'u va odatlar maktabda



kompetensiyaga, mahallada ijtimoiy tajribaga, OAVda esa kuraj va motivatsiyaga aylanib, davlat-jamiyat hamkorligida barqaror amaliyotga ko'chadi.

Uchinchidan, amaliy natijaga chiqish uchun konseptual hujjatni ishlab chiqish va joriy etish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, darslik-o'quv qo'llanmalar mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, mahallada yoshlar yetakchiligi va sport-madaniy infratuzilmadan to'laqonli foydalanish, OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda mazmunli mediakontent ulushini oshirish kabi vazifalar bir butun paket sifatida amalga oshirilishi zarur.

To'rtinchidan, samarani o'lchaydigan aniq indikatorlar va monitoring tizimi joriy etilmas ekan, tarbiya jarayoni bajarildi-degan hisobotdan narigi bosqichga o'tmaydi. Shunga ko'ra, "vatanparvarlik kompetensiyasi profili"ni shakllantirish taklif etiladi:

- tarixiy xotira va milliy meros bo'yicha savodxonlik;
- fuqaroviy faollik (ixtiyoriy mehnat soatlari, jamoat loyihalarida ishtirok);
- huquqiy ong va qonunbuzarlikka nol tolerantlik;
- tabiatni asrash bo'yicha xulq-atvor amaliyotlari;
- armiya, xavfsizlik va jamoat tartibiga hurmat;
- madaniy hodisalarda qatnashish, ona til va adabiyotga munosabat;
- sog'lom turmush tarzi va sportda ishtirok.

Bu ko'rsatkichlar bo'yicha yillik diagnostika, taqqoslama tahlil va fidbek asosida dasturlar doimiy ravishda kalibrovka qilinishi kerak.

Beshinchidan, ushbu yondashuvning amaliyot uchun qiymati shundaki: u pedagoglar uchun metodik yo'l xarita, mahalla va jamoat tashkilotlari uchun aniq ish rejasi, siyosat ishlab chiquvchilar uchun esa resurs taqsimoti va me'yoriy bazani optimallashtirish mezonlarini beradi. Bunda davlat-xususiy-jamoat sherikligi mexanizmlarini kuchaytirish, grant va tanlovlar orqali yoshlar loyihalarini rag'batlantirish samaradorlikni oshiradi.

Oltinchidan, tadqiqotning cheklashlari ham mavjud: ushbu ish nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, taklif etilgan model va indikatorlarning empirik verifikatsiyasi alohida empirik tadqiqotlarni talab qiladi. Keyingi bosqichda longityud tadqiqotlari, mintaqalararo taqqoslamalar va vaqt-qatorlari asosida ta'sirni baholash, shuningdek, raqamli muhitda mediasavodxonlik-vatanparvarlik aloqalarini o'rganish maqsadga muvofiq.



XULOSA

Yakuni shundaki, vatanparvarlik tarbiyasi -bu yakka aksiya emas, balki uzluksiz, indikatorlarga suyanadigan va barcha subyektlar mas'uliyati bilan ta'minlanadigan tizimdir. Ushbu tizim asosida tarbiyalangan yoshlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona harakat qiladigan, ma'nan barkamol va jismonan sog'lom avlod sifatida kamol topadi. Mana shunday salohiyatli avlod -mamlakatimiz kelajagi uchun ishonchli poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi - davr talabi // Xalq so'zi. - 2019. - 12 yanvar.
2. Qurbonova, N. S., Kurbonov, N. S., & Khudoymurodova, H. M. Taking creativity into classroom.
3. Худоймуродова, Х. (2022, September). Нодир Норматов ҳикояларида қишлоқ прозаси. In international scientific conference "innovative trends in science, practice and education" (Vol. 1, No. 1, pp. 172-175).
4. Jabbarova, I. (2023). History of construction of pachkamar water reservoir. Академические исследования в современной науке, 2(27), 64-70.
5. Safarov, K., & Jabbarova, I. (2023). Saljuqiylar imperiyasi– tarixdagi buyuk davlat. Models and methods in modern science, 2(13), 149-155.
6. Bobomurodova, N., & Jabborova, I. (2024, January). Beruniyning hindiston asari. In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 103-107).